



IJTIMOIIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNALI

ISSN 3060-5059



VOL.3 № 5

2026

HOFIZ XORAZMIY IJODIDA VUJUD BIRLIGI G'OYASI TASVIRI (ORIFONA G'AZAL TAHLILI ASOSIDA)

Ahmadova Shohsanam Sodiq qizi

Jizzax davlat pedagogika universiteti, tayanch doktorant

Annotatsiya

Ushbu maqolada Hofiz Xorazmiyning orifona g'azallarida vahdat ul-vujud nazariyasining aks etishi tadqiq qilinadi. Ijodkorning tasavvuf timsollaridan foydalanish mahorati tahlillar asosida ochib beriladi. Bunda asosiy e'tibor g'azalning irfoniy mazmun-mohiyatiga, xususan, "vujud birligi" g'oyasiga oid qarashlar talqini hamda tadqiqiga qaratiladi. Baytlarda qo'llanilgan badiiy san'atlar ham tahlil etiladi.

Kalit so'zlar: vahdat, vahdat-ul vujud, zikr, lab, Xurshid, zarra, nazar, qohir, tohir, jon va vujud.

THE IMAGE OF THE IDEA OF THE UNITY OF BEING IN THE WORKS OF HAFIZ KHWARAZMI (BASED ON THE ANALYSIS OF THE ORIFONA GHAZAL)

Ахмадова Шохсанам Содик кизи

Джизакский государственный педагогический университет, базовый докторант

Аннотация

В данной статье исследуется отражение теории вахдат-уль-вуджуд в ирфоний (гнозеологических) газелях Хофиза Хворазмий. На основе анализа раскрывается мастерство поэта в использовании суфийских символов. Основное внимание уделяется ирфонийскому (гнозеологическому) содержанию и смыслу газели, в частности, толкованию и исследованию взглядов, связанных с идеей «единства бытия». Анализируются также художественные средства, использованные в бейтах.

Ключевые слова: единство, единство бытия, поминание (Бога), губа, солнце, частица, взгляд, всеокрушающий, чистый, душа, бытие.

THE IMAGE OF THE IDEA OF THE UNITY OF BEING IN THE WORKS OF HAFIZ KHWARAZMI (BASED ON THE ANALYSIS OF THE ORIFONA GHAZAL)

Ahmadova Shohsanam Sodiq qizi

Jizzakh State Pedagogical University, PhD Student

Abstract

In this article, the reflection of the theory of wahdat al-wujud in the gnossistic ghazals of Hafiz Khwarazmi is analyzed. The author's skill in utilizing Sufi symbols is revealed through literary and philosophical analysis. The main attention is paid to the inner, gnossistic meaning of the ghazal, in particular, to interpretations and study of views related to the concept of "unity of being." The artistic devices employed in the verses are also analyzed.

Keywords: unity, unity of existence, remembrance (of God), lip, the sun, particle, gaze, overpowering, pure, soul, existence.

Hofiz Xorazmiy — o'zbek mumtoz she'riyatining XV asrdagi yorqin namoyandalaridan biri. Uning ijodi nafaqat milliy adabiy g'urur, balki Markaziy Osiyoga xos tasavvuf falsafasining chuqur ifodasini ham o'zida mujassam etadi. Shoir ijodida ishq, ma'naviy sarguzasht, vujud birligi kabi mavzular markaziy o'rinni egallaydi. Bu maqolada Hofiz Xorazmiyning "orifona" g'azallarida vahdat ul-vujud nazariyasining aks etishi alohida e'tiborga qaratiladi. Tasavvuf an'analari asosida shakllangan "vujud birligi" g'oyasi butun olam yagona Haq vujudidan, Birlikdan hosil bo'lgan yaxlit butunlik sifatida talqin qilinadi; bu g'oya Hofiz Xorazmiyning ko'plab g'azallarida aks etadi.

Bu maqolada "orifona" g'azal tahlili asosida Hofiz Xorazmiy ijodida vujud birligi g'oyasining mazmun-mohiyatini, uning shoirning diniy-falsafiy dunyoqarashiga qanday singganini va g'azal shaklidagi ijodiy talqinda qanday samarali tarzda ifodalanganligini ko'rsatish maqsad qilingan.

Tadqiqot metodologiyasi. Ushbu tadqiqot asosan tarixiy-tahliliy, qiyosiy-tahliliy hamda semantik tahlil usullariga tayanadi. G'azallar tarkibida uchraydigan timsollar ma'no sathi hamda tasavvuf nuqtai nazaridan tekshiriladi. Bu esa so'z va timsollarning vujud birligi g'oyasini qanday aks ettirishini aniqlashga yordam beradi. Tadqiqotda kontekstual tahlil metodi asosiy rol o'ynaydi: baytlardagi tasavvuf

terminlari va timsollari izohlanadi.

Muhokama va natijalar. Ibn Arabiy o'zining "Futuhot al-Makkiyya" hamda "Fusus ul-hikam" asarlari orqali ushbu nazariyani bayon qilgan. Jumladan, Ibn Arabiy shunday deydi: "Parvardigor vujud bilan sifatlangandir. Parvardigor vujudning aynan o'zidir... ya'ni Alloh mavjuddir va olamdagi bor narsa mavjud emas" [9; 40–46]. Bu va bu kabi fikrlar nafaqat o'z davrida, balki keyinchalik ham din va ilohiyot olamida kuchli tanqid va munozaralarga sabab bo'ldi.

Uning falsafiy qarashlarini tadqiq etgan ilk olim Abul Ala Affifi Ibn Arabiyning panteistik g'oyalarini oriflarning Ilohga bo'lgan chin muhabbati tasviri orqali ochib bergan. Marijan Mole esa ushbu ta'limotning asl mohiyatini ochib berish uchun "vujud" so'zining ma'nolariga e'tibor qaratadi. Unga ko'ra, "vujud" so'zi "topmoq", "topilmoq", "mavjud bo'lmoq" degan ma'nolarni anglatadi. Ya'ni solik ma'naviy yo'l oxirida Allohni topadi, U bilan topishadi.

Mazkur tadqiqotlarga o'z munosabatini bildirgan Annemarie Schimmel shunday xulosa qiladi: "Ibn Arabiy hech qanday tizim yaratmaganini da'vo qilsa-da, uning o'tkir zehni va mulohazali tafakkuri uni o'z tajribalari hamda qarashlarini muayyan bir tizim shakliga keltirishga olib kelgan. U ishlab chiqqan terminologiyaning undan keyingi so'fiylarga ko'rsatgan ta'siri shuni anglatadiki, ular Ibn Arabiy g'oyalarini tasavvufning asl mohiyatini tashkil etadi deb hisoblangan tushunchalarning mohirona tizimlashtirilgan ifodasi sifatida qabul qilganlar" [3; 290].

Ushbu fikr tasdig'i o'laroq, Ibn Arabiy g'oyalarining Jaloliddin Rumiy, Mahmud Shabustariy, Hofiz Sheroziy, Hofiz Xorazmiy, Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy kabi buyuk mutasavvif shoirlar ijodining asosiy tasvir obyekti bo'lganligini keltirish mumkin. Bu haqida taniqli islomshunos olim A.Sh. Juzjoniyning "Islom dunyosida bu kunga qadar bir nav uning tafakkuri ta'siri ostida bo'lmagan hech mutafakkir, orifmijoz faylasuf topilmaydi" [1; 21], — deyishida ham asos bor. Negaki, ushbu ta'limot nafaqat o'z davrining, balki mumtoz adabiyot deb atalmish katta davrning adabiyoti, ilmiy muhiti hamda ijtimoiy hayotida ulkan burilish yasadi.

Jumladan, Hofiz Xorazmiy ijodini vahdat ul-vujud nazariyasiz tasavvur etish mushkul. Hofiz Xorazmiy g'azaliyotining umumiy mazmun-mohiyati bevosita vahdat ul-vujud nazariyasi g'oyalari bilan yo'g'rilgan. Bunga shoirning orifona g'azalini to'liq tahlil etish orqali yana bir bor amin bo'lamiz. G'azal an'anaviy 7 baytdan tashkil topgan bo'lib, lirik qahramonning yor go'zalligiga oshiq bo'lganligi hamda bundan xushnud holati tasviri bilan boshlanadi:

Jon bo'lg'ali shakartak shirin labidin zokir,

Shakar bandin o'shaningdir payvasta ko'ngul shokir. [8; 234]

Ma'nosi: jon uning shirin labi xayolidan zikr qiluvchiga aylandi. Ko'nglim esa unga bog'langan va men bunga shukr qiluvchiman. Labning tasavvufdagi ma'nosini taniqli turk ilohiyotchisi Ethem Jebejiog'lu quyidagicha izohlaydi:

1-ma'no: farishtalar orqali payg'ambarlarga, qalbni poklash yo'li bilan valiylarga nozil bo'ladigan ilohiy so'zlar.

2-ma'no: hech qanday vositasiz his etiladigan, idrok etiladigan ilohiy ilhom.

3-ma'no: mahbubning so'zi, mahbub [12; 214].

Baytdagi "lab" so'zi aynan nafsni tarbiyalash hamda ruhiy poklanish orqali qalban idrok etiluvchi ilohiy ilhomni ifodalab kelmoqda. Umumiy mazmun esa quyidagichadir: ilohiy ishq tariqiga qadam zikr qilishdan boshlanadi. Bu zikr tilda takrorlanuvchi oddiy so'zlar emas, balki Alloh tomonidan berilgan ilhom tufayli qalban takror etiluvchi, qalbni poklovchi zikrdir. Bunday pok qalb endi ilohiy sevgi bandiga yanada mustahkam bog'lanadi va bunga shukrona keltiradi. Yassaviya tariqati asoschisi bo'lgan Xoja Ahmad Yassaviy:

Xos ishqingni ko'rsat menga shokir bo'lay,

Arra qo'ysa Zikriyodek zokir bo'lay, [2; 13]

deya yozishi ham bejiz emas.

Baytda so'fiylikning poydevori diniy ahkomlarning bekam-u ko'st bajarilishi ekanligiga, shariatsiz tariqat bo'lmasligiga ham ishora qilinmoqda. Ushbu mazmunga hamohang Yassaviy shunday nasihat qiladi:

Qul Xoja Ahmad, shariatni qo'lg'a olg'il,

Tariqatda, haqiqatda yo'lg'a kirg'il,

Ma'rifatda tufroq bo'lub fano bo'lg'il,

Tufroq bo'lib dargohig'a bordim mano. [14; 63]

Keyingi ikki baytda Hofiz "birlik" g'oyasini aks ettirish uchun Quyosh — Xurshid hamda zarra

timsollaridan foydalanadi:

Ko'rguzdi manga jonon xurshid-i jamolini,
Ko'rganda o'z-o'zumni g'oyib bo'libon hozir.

Xurshid — Quyosh, Mehr, Shams — Quyosh sistemasining markazi, Yer uchun yorug'lik va issiqlik manbai bo'lgan sayyoradir. Quyosh obrazining ramziylik kasb etishi uzoq tarixga ega. Jumladan, Quyosh ma'budi Ra qadimgi Misrda oliy iloh sanalgan. Zardushtiylikda esa Quyosh xudosi Xvarxished (Xurshed) yorug'lik taratuvchi, barcha narsani ko'rib turuvchi iloh sifatida talqin qilinadi hamda Mitraning yaxshilik va yomonliklarning barchasini ko'rishi uchun zamin yaratishiga ishoniladi.

Biroq Mitrani ko'pincha Quyosh xudosi deya ta'riflash holatlari kuzatiladi. Uning Mehr deb ham atalishi hamda aksariyat hollarda Quyosh bilan birga tasvirlanganligi bunga sabab bo'lgan bo'lishi mumkin. Bu masalani tadqiq etgan tarixchi va dinshunos Ra'no Urazova ta'kidlashicha, Mitraga berilgan Mehr nomi Quyoshni ifoda etmaydi, balki qadimgi Avestocha Mitra so'zining talaffuzdagi shakli — misr bizgacha o'zgarish bilan yetib kelgan. Olima fikrining isboti sifatida so'g'diylar muhrni, ya'ni bitim va kelishuvlarda hujjatlarga bosiladigan tamg'ani "g'iroy misr" deganliklarini keltiradi [13; 398–403]. Albatta, bu mulohaza badiiy adabiyotda ko'p narsaga oydinlik kiritadi.

Demak, Xurshed — Xvarxished o'z yorug'ligi bilan barcha narsani ko'rib turuvchi bo'lgan. Mitra esa uning yog'dusi yordamida ezgulik va yovuzlikni farqlagan hamda ularga ajr-savob yoxud jazo bergan. Tasavvuf adabiyotidagi Quyosh timsoli uchun Xvarxishedning aynan hamma joyga birdek nur sochish hamda barcha narsani ko'rib turish xususiyatlari asosiy omil bo'lib xizmat qilgan.

Demak, baytda Xurshid quyidagi xususiyatlari bilan zoti ahadiyyatni [12; 124] tamsil etmoqda:

1. Tanholik, yagonalik. Quyosh olamda bitta bo'lganidek, Alloh bir-u bordir.
2. Adolat. Quyosh hamma joyga birdek nur taratadi, qayergadir oz, qayergadir ko'p nur sochmaydi. Yaratgan har bir bandasining savob-u gunohlari, ajr-u imtihonida adolatli zotdir.
3. Barcha narsani ko'rib turishlik. Avestoda Xvarxished hamisha barcha narsani ko'rib turganidek, yagona Iloh nafaqat ko'zga ko'rinuvchi narsa va harakatlarni, balki ko'ngilda his qilingan ezgu va g'arazli o'y-fikrlarni ham ko'rib turguvchidir.

Tasavvufda Quyosh yagona Allohni tamsil etar ekan, uning nurlari jamiki moddiy olam, maxluqotni ifoda etadi:

Zarrot-i jahon ichra husnini ko'ra ko'rgil, Xurshid-i jamoli chun har zarradadur zohir.

Yuqorida Allohning ism va sifatleri ko'zimizga ko'rinib turgan har bir narsada tajalliy etishini eslatib o'tgan edik. Mazkur baytda shunga ishora qilinmoqda. Ya'ni shoir, agar ilohiy go'zallikni ko'rmoqchi bo'lsang, har zarraga, ya'ni bu olamdagi har bir narsaga mushohada ko'zi bilan, ko'ngil ko'zi bilan boq, deya ta'kidlamoqda. Zero, har bir zarra Quyoshning sifatlarini — yorug'lik va issiqlikni — o'zida mujassam etgan. Buni anglash uchun esa nazar qilmoq kerak:

Har qayda nazar qilsang maqsudi murod uldur,

O'zgaga nazar qilma manzur erur nozir.

Mazkur baytda "nazar" so'zi ikki o'rinda ikki xil ma'no anglatib kelmoqda:

1-misrada "mavjudot, borliqning asl mohiyatiga, haqiqatiga diqqat qilmoq" [4; 222];

2-misrada esa "boqmoq, nazar tashlamoq" ma'nosini bildiradi.

Baytda bu olamda qayerga yoxud nimaga uning haqiqatini anglash darajasida mushohada qilsang, maqsadingga, ya'ni ilohiy vaslga yetishasan, degan fikr ilgari suriladi. Faqat bu yo'lda o'zgaga, ya'ni nafs hamda unga bog'liq bo'lgan illatlar va havaslarga nazar tashlab, maqsadingdan uzoqlashma. Zero, seni hamisha ko'rib turguvchi Alloh — nozir, ya'ni kuzatib turuvchi [11; 339] bordir.

Keyingi baytda ijodkor fikrini davom ettirar ekan, bu maqsudi murodga erishmoq uchun qalbni poklash zaruriy shart ekanligini uqtiradi:

Surgil ko'ngul evidin g'ayrat bila g'ayrni,

Chun mulki vujud ichra ul shoh erur tohir. [7; 378]

Ushbu bayt qofiyasida kelgan "tohir" so'zi devonning Hamid Sulaymonov tomonidan tuzilgan o'zbek nashrida "qohir" tarzida yozilgan. "Qohir" so'zining lug'aviy ma'nosi "qahr qiluvchi, g'azab qiluvchi" [5; 322] bo'lib, Allohning Al-Qahhor — o'z kuchi bilan barcha maxluqotni bo'ysundiruvchi — ismiga xos jihatni ifodalaydi. Ammo bu baytning umumiy mazmuniga "qohir" so'zi unchalik mos emas. Devonning turkcha nashrida esa bu so'z o'rnida "tohir" jumlasini yozilgan va bu mazmungan misraga to'la mos keladi.

Shu o'rinda adabiyotshunos olim Ergash Ochilovning mumtoz adabiyotga oid asarlar tarjimasida tarjimon nafaqat arab va fors tillaridan, balki mumtoz adabiyot an'analari hamda tasavvuf, irfoni

tushunchalardan ham xabardor bo'lishi lozimligi [6; 378] haqidagi fikrlari naqadar dolzarb ekanligiga amin bo'lamiz. Zero, tahlil qilinayotgan bu misraning ma'nosini birgina so'z, aniqrog'i, birgina harf tafovuti o'zgartirib yubormoqda.

“Tohir” so'zi tasavvuf lug'atlarida “sof” degan ma'noni ifodalashi, “Alloh vasvasalar, istaklar va boshqalardan himoya qiladigan kishi” ma'nosida qo'llanishi keltirilgan [12; 258]. Ushbu baytda aynan ko'ngil poklash haqida so'z bormoqda. Ko'ngil pokligi nafaqat sof va samimiy tuyg'ular ila ziynatlanish, balki ilohiy ishqdan boshqa barcha xayol, umid yoxud hislardan voz kechishni anglatadi. Shu nuqtai nazardan, misrada “tohir” so'zini qo'llashni ma'qul ko'rdik.

Hofiz Xorazmiy bu baytda Hofiz Sheroziyning bir o'rinda bir qancha ma'nolarni ifodalash uslubidan foydalanadi. Ikkinchi misrada “mulki vujud” birikmasini inson vujudi ma'nosida olsak, ko'ngilning inson tanasining eng oliy, pok va muqaddas a'zosi ekanligi anglashiladi. Zero, so'fiylikda aynan ko'ngil, qalb isloh qilinadi va shu orqali komillikka erishiladi. Ammo “vujud” so'zi mavjudlik, borliq ma'nosida tahlil etilsa, Allohning butun borliq ichra yagona va har qanday ehtiyojlardan xoli bo'lgan pok zot ekanligini tushunish mumkin. E'tiborli jihati shundaki, har ikkala ma'noda ham g'azal mazmuniga xos izchillik saqlanadi, mantiq buzilmaydi.

Navbatdagi baytda shoir bosqichma-bosqich yuksalib kelayotgan solikka fano bo'lmoqlik zamon kelganligini ta'kidlaydi:

O'rtada qachon bo'lg'ay o'zgaga vujud, ey jon,
Chun zohir-u botindur, ham avvalu, ham oxir.

Baytda jonga murojaat qilinib, o'z vujudidan, ya'ni tanasidan-da voz kechishi so'ralmoqda. Chunki jon — ruh va Iloh orasida o'zgaga o'rin yo'q. Bundan oldingi ikki baytda ijodkor “o'zga” va “g'ayr” deya turli illat, havas, tuyg'ulardan tozalangan jonga endi undan ham murakkab va sharaflil bo'lgan vazifani — fano bo'lmoqlikni topshirmoqda. Axir Yaratuvchi “zohir-u botindir, ham avvalu, ham oxir”. Zohirligi — bu olamda tajalliy etgan sifatleri bo'lsa, botini — faqat ma'rifatga erishgan zotlargagina ayon bo'luvchi sirlaridir. Avval-u oxir ekanligi esa hamisha bor bo'lganligi va bor bo'lishidir. Bu haqida Alisher Navoiy shunday yozadi:

Azal ham sen, abad ham sen, ne avval birla oxirkim,
Anga yo'q ibtido paydo, munga yo'q intiho paydo. [10; 8]

Maqtada adib ilohiy ishq yo'lida chekiluvchi buncha mashaqqat va ko'p narsadan voz kechilishiga mukofot sifatida ruhning yuksalishi muqarrarligini keltiradi:

Husn ichra o'shul sulton chun nodir-i davrondur,
Ishqi bila, ey Hofiz, san ham bo'la ko'r nodir.

Ruh kishining nafs tarbiyasi, qalb pokligi yo'lidagi barcha chekkan azoblari husni Mutlaqqa erishmoq uchundir. Uning husni shu qadarki, hatto uning ishq ham insonni boshqalardan ajralib turuvchi yuksaklikka olib chiqadi. Ishqi komil bo'lgan so'fiy esa nodiri davron — Alloh vasliga erishadi va nodir, ya'ni “yagona, noyob” [11; 339] bo'ladi. Bu o'rinda vahdat ul-vujud nazariyasidagi Alloh bilan birlik hosil qilish, vahdatga erishish haqida so'z bormoqda.

Mazkur g'azal nafaqat irfoni mazmun jihatidan, balki aruziy xususiyatlari jihatidan ham go'zaldir. Jumladan, g'azal aruz ilmida ohangdor vazn bo'lgan “hazaji musammani axrab” vaznida yozilgan bo'lib, taqte'si quyidagicha:

maf'uvlu / mafoiylun / maf'uvlu / mafoiylun
-- V / V --- / -- V / V ---

Qo'llanilgan badiiy san'atlar: tashbeh — shakartak shirin lab, xurshidi jamol, ko'ngul evi; takrir — jamol, nodir, ko'ngul, zohir, xurshid, jon, vujud, nazar; tanosub — shoh-sulton, maqsud-murod; tazod — Xurshid-zarrot, g'oyib-hozir, zohir-botin, avval-oxir; ishtiyoq — zarra-zarrot, nozir-manzur.

Xulosa. Vahdat ul-vujud nazariyasi tasavvuf falsafasining eng muhim va murakkab konseptual yo'nalishlaridan biri sifatida o'z davri diniy-falsafiy tafakkuri, ma'naviy dunyoqarashi hamda badiiy-estetik qarashlariga kuchli ta'sir ko'rsatgan. Mazkur nazariya borliqni yagona ilohiy mohiyatning tajallisi sifatida talqin etishi bilan mumtoz Sharq adabiyotida yangi mazmuniy qatlamlarning shakllanishiga zamin yaratdi. Ayniqsa, inson, olam va Haq munosabatini anglashda vahdat g'oyasi shoirlar uchun muhim badiiy-falsafiy asos vazifasini bajardi. Shu sababli mumtoz adabiyotda ishq, ma'rifat, oriflik, komillik, hijron, vasl, may, soqiy, yor, ko'ngil kabi obraz va timsollar ko'pincha zohiriy ma'nodan tashqari chuqur irfoni mazmunga ega bo'ldi. Hofiz Xorazmiy ijodida ham vujud birligi g'oyasi alohida o'rin tutadi. Shoir she'riyatida borliqning ilohiy mohiyat bilan uzviy bog'liqligi, inson qalbining Haqqa intilishi, zohiriy go'zallik ortida botiniy haqiqatni ko'rish kabi tasavvufiy qarashlar keng ifodalanadi. Xususan, uning

orifona gʻazallarida vahdat ul-vujud gʻoyasi gʻazalning boshidan oxirigacha izchil badiiy-falsafiy yoʻnalish sifatida namoyon boʻladi. Bunday gʻazallarda lirik qahramon oddiy oshiq emas, balki ilohiy haqiqatni anglashga intiluvchi orif timsolida gavdalanadi. Uning iztiroblari, hijroni, vaslga intilishi va ruhiy kechinmalari Haq bilan yaqinlashish jarayonining ramziy ifodasi sifatida talqin qilinadi.

Shoirning oshiqona gʻazallarida esa vahdat ul-vujud gʻoyasi bevosita emas, balki ayrim baytlar, ramziy obrazlar va tasavvufiy timsollar orqali ifodalanadi. Bu holat Hofiz Xorazmiy lirikasida zohiriy ishq bilan botiniy ishqning oʻzaro uygʻunlashganini koʻrsatadi. Yor obrazi koʻpincha ilohiy jamol timsoli sifatida namoyon boʻlsa, oshiqning holati inson ruhining Haqqa intilishi bilan bogʻlanadi. May, soqiy, xarobot, koʻngil, koʻz, yuz, zulf kabi anʻanaviy obrazlar ham shoir sheʼriyatida tasavvufiy mazmun kasb etib, vahdat haqidagi qarashlarni badiiy jihatdan teranlashtiradi.

Tahlillar shuni koʻrsatadiki, Hofiz Xorazmiy vahdat ul-vujud gʻoyasini faqat falsafiy tushuncha sifatida emas, balki poetik tafakkur, obrazlar tizimi va lirik kechinmalar orqali ifodalagan. Shoir ijodida bu nazariya insonning maʼnaviy kamoloti, ruhiy poklanishi, ilohiy haqiqatni idrok etishi va borliq mohiyatini anglash jarayoni bilan chambarchas bogʻliq holda talqin qilinadi. Shu jihatdan Hofiz Xorazmiy sheʼriyati mumtoz oʻzbek adabiyotida tasavvufiy-falsafiy gʻoyalarni badiiy ifodalashning muhim namunalaridan biri hisoblanadi. Kelgusida Hofiz Xorazmiyning nafaqat orifona gʻazallari, balki oshiqona gʻazallari hamda qitʼalarida ham vujud birligi gʻoyasining namoyon boʻlish shakllarini alohida tadqiq etish maqsadga muvofiqdir. Bunday izlanishlar shoir ijodidagi ishqiy va irfoniy qatlamlarning oʻzaro munosabatini yanada chuqurroq ochib berishga, uning badiiy tafakkuridagi tasavvufiy ramzlar tizimini aniqlashga hamda Hofiz Xorazmiyning mumtoz adabiyot taraqqiyotidagi oʻrnini kengroq yoritishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR ROʻYXATI

1. Abdulhakim Sharʼiy Juzjoniy. Tasavvuf va inson. — T.: Adolat, 2001. — B. 21.
2. Ahmad Yassaviy. Devoni hikmat. — T., 1972. — B. 13.
3. Annemarie Schimmel. Islāmın Mistik Boyutları / çev. Ergun Kocabıyık. — İstanbul: Kabcacı Yayınevi, 1991. — S. 533.
4. Avaznazarov O. Mumtoz adabiyot namunalari uchun tasavvuf lugʻati. — Toshkent: Tavfiqnashr, 2025. — 458 b. — B. 222.
5. Berdak Yusuf. Mumtoz adabiy asarlar lugʻati. — T.: Sharq, 2010. — 528 b. — B. 322.
6. Ergash Ochilov. Mumtoz adabiyot namunalari tarjimai muammolari // Tarjimonshunoslar forumi. — 2022. — Vol. 2, Issue 28. — B. 278–285.
7. Harezmlı Hafızʼin Divanı: İnceleme–Metin–Tıpkıbasım / Prof. Dr. Recep Toparlı. — Ankara, 1998. — S. 378.
8. Hofiz Xorazmiy. Devon. I kitob. — Toshkent: Oʻzbekiston KP Markaziy komitetining nashriyoti, 1981. — 303 b.
9. Karimov S. Ibn al-Arabiy falsafasida “Vahdat ul-vujud” konsepsiyasining oʻrni // Science Time International Scientific Journal. — Vol. 2, Issue 2. — B. 40–46.
10. Navoiy A. Mukammal asarlar toʻplami: 20 jildlik. 5-jild. — Toshkent: Fan, 1990. — 544 b. — B. 8.
11. Rahmonov V. Mumtoz asarlar lugʻati. — Toshkent: Akademnashr, 2019. — 544 b. — B. 339.
12. Tasavvuf Terimleri ve Deyimleri Sözlüğü / Prof. Dr. Ethem Cebecioğlu. — 3. basım. — S. 214.
13. Urazova R. Avesto yashlarida Mitraning sifatları // FarDU ilmiy xabarlar. — 2023. — № 1. — B. 398–403.
14. Xoja Ahmad Yassaviy, Sulaymon Boqirgʻoniy [Matn]: nazm / toʻplovchi va nashrga tayyorlovchilar Sayfiddin Rafiddinov, Nodirxon Hasan. — Toshkent: Oʻzbekiston nashriyoti, 2022. — 592 b. — B. 63.